

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

NORDIK INTEGRATSIYA MODELIDA MADANIYI SIYOSATNING UMUMIY IDENTIKLIKNI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Shahlo Eshkobilova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, mustaqil tadqiqotchi.

e-mail: eshqobilovashaxlo@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0009-9238-5158>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Nordik integratsiyasi modelida madaniy siyosatning umumiy mintaqaviy identiklikni shakllantirishdagi o'rni kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot konstruktivizm, ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi hamda "tasavvur qilingan hamjamiyat" konsepsiyasi asosida olib borilib, Nordik mamlakatlarida umumiy identiklikning institutsional va normativ asoslari yoritilgan. Helsinki shartnomasi, Nordik Kengashi, Nordik Vazirlar Kengashi, Nordplus dasturi, Nordik til siyosati deklaratsiyasi hamda Vision 2030 strategiyasi misolida ta'lim, til va madaniyat sohalaridagi hamkorlik mexanizmlarining integratsiyaga ta'siri tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari Nordik integratsiyasi modelining muvaffaqiyati "yumshoq kuch" vositalari orqali ko'p qatlamli identiklikni shakllantirish bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Nordik integratsiyasi, mintaqaviy identiklik, ta'lim siyosati, til siyosati, madaniyat siyosati, konstruktivizm, ijtimoiy identifikatsiya, Nordplus.

РОЛЬ КУЛЬТУРНОЙ ПОЛИТИКИ В НОРДИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ ИНТЕГРАЦИИ В ФОРМИРОВАНИИ ОБЩЕЙ ИДЕНТНОСТИ

Шахло Эшкобилова

Ташкентский государственный университет востоковедения, независимый исследователь.

Аннотация.

В данной статье представлен комплексный анализ роли культурной политики в формировании общей региональной идентичности в модели скандинавской интеграции. Исследование проводится на основе конструктивизма, теории социальной идентичности и концепции «воображаемого сообщества», освещаются институциональные и нормативные основы общей идентичности в странах Северной Европы. Анализируется влияние механизмов сотрудничества в области образования, языка и культуры на интеграцию на примере Хельсинкского договора, Нордического совета, Нордического совета министров, программы Nordplus, Декларации нордической языковой политики и стратегии Vision 2030. Результаты исследования показывают, что успех модели скандинавской интеграции связан с формированием многослойной идентичности через инструменты «мягкой силы».

Ключевые слова: Нордическая интеграция, региональная идентичность, образовательная политика, языковая политика, культурная политика, конструктивизм, социальная идентификация, Nordplus.

THE ROLE OF CULTURAL POLICY IN THE FORMATION OF GENERAL IDENTITY IN THE NORDIC INTEGRATION MODEL

Shahlo Eshkobilova

Tashkent State University of Oriental Studies, Independent Researcher.

Abstract.

This article provides a comprehensive analysis of the role of cultural policy in shaping general regional identity within the Nordic integration model. The study is based on constructivism, social identity theory, and the concept of the "imagined community," highlighting the institutional and normative foundations of shared identity in the Nordic countries. The impact of cooperation mechanisms in the fields of education, language, and culture on integration is analyzed using the example of the Helsinki Agreement, the Nordic Council, the Nordic Council of Ministers, the Nordplus program, the Nordic Language Policy Declaration, and the Vision 2030 strategy. The results of the study show that the success of the Nordic integration model is linked to the formation of multi-layered identity through "soft power" tools.

Keywords: Nordic integration, regional identity, educational policy, language policy, cultural policy, constructivism, social identification, Nordplus.

Kirish. XXI asrda mintaqaviy integratsiya jarayonlari nafaqat iqtisodiy va siyosiy hamkorlik, balki umumiy identiklikni shakllantirish omillari bilan ham belgilanmoqda. Zamonaviy integratsiya nazariyalarida barqaror mintaqaviy hamkorlikning muvaffaqiyati fuqarolarning umumiy qadriyatlar, tarixiy xotira, madaniy yaqinlik va o'zaro ishonch asosida shakllangan identiklik hissiga bevosita bog'liq ekanligi qayd etiladi. Shu sababli Nordik integratsiyasi modeli ta'lim, til va madaniyat siyosatini integratsiyaning strategik vositalariga aylantirgan eng muvaffaqiyatli mintaqaviy tajribalardan biri sifatida alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Ushbu model milliy suverenitetni saqlagan holda umumiy mintaqaviy identiklikni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini namoyish etadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, unda Nordik mamlakatlarida ta'lim, til va madaniyat siyosatining umumiy identiklikni shakllantirishdagi institutsional va amaliy mexanizmlari kompleks tahlil qilinadi. Helsinki shartnomasi, Nordik Kengashi, Nordik Vazirlar Kengashi, **Nordplus** dasturi hamda **Vision 2030** strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan hamkorlikning mintaqaviy birdamlikni mustahkamlashdagi o'рни baholanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature Review)

Tahlil jarayonida Helsinki shartnomasi, Nordik til siyosati deklaratsiyasi, **Vision 2030** strategiyasi, **Nordplus** dasturi va Nordik Vazirlar Kengashining rasmiy hujjatlari, ilmiy adabiyotlar hamda statistik ma'lumotlar o'rganildi. Nazariy jihatdan konstruktivizm konsepsiyasi mazkur jarayonni izohlaydi. Aleksandr Vendt ta'kidlaganidek, identiklik va manfaatlar davlatlar yoki jamiyatlarga oldindan berilgan hodisa emas, balki ijtimoiy o'zaro ta'sir va institutsional amaliyotlar natijasida shakllanadi [1]. Anri Tajfel va Jon Tyorner tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy identifikatsiya nazariyasiga ko'ra esa guruh ichidagi birdamlik umumiy qadriyatlar, normalar va tajribalar orqali mustahkamlanadi [2]. Ta'lim aynan shu jarayonning asosiy instituti bo'lib, u faqat bilim berish bilan cheklanmaydi, balki qadriyatlarni singdiradi, fuqarolik ongini shakllantiradi hamda Benedikt Anderson ta'riflagan **"tasavvur qilingan hamjamiyat"** hissini yuzaga keltiradi [3]. Nordik mamlakatlari tajribasida ushbu nazariyalar amaliy ifodasini topgan bo'lib, ta'lim siyosati tenglik, ijtimoiy ishonch, demokratiya va hamkorlik tamoyillarini umumiy identiklikning asosiy elementlariga aylantiradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Mazkur tadqiqot sifat tahliliga asoslangan bo'lib, unda qiyosiy, institutsional, tarixiy va kontent tahlili metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini konstruktivizm, ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi hamda **"tasavvur qilingan hamjamiyat"** konsepsiyasi tashkil etdi. Qiyosiy yondashuv orqali ta'lim, til va madaniyat siyosatining umumiy identiklikni shakllantirishdagi o'zaro bog'liqligi hamda ularning mintaqaviy integratsiya samaradorligiga ta'siri tizimli ravishda baholandi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Nordik integratsiyasi modeli zamonaviy mintaqaviy hamkorlikning eng muvaffaqiyatli va o'ziga xos namunalaridan biri hisoblanadi. Mazkur model Yevropa Ittifoqi kabi millatlararo boshqaruv tizimidan farqli ravishda hukumatlararo hamkorlik tamoyiliga asoslanadi. Uning institutsional poydevorini 1952-yilda tashkil etilgan Nordik Kengashi hamda 1971-yilda tuzilgan Nordik Vazirlar Kengashi tashkil etadi [4]. Integratsiyaning huquqiy asoslari 1962-yilda qabul qilingan va keyinchalik bir necha bor takomillashtirilgan Helsinki shartnomasi orqali mustahkamlangan bo'lib, unda erkin harakatlanish, umumiy mehnat bozori, ijtimoiy himoya, madaniy va ta'lim sohalaridagi hamkorlik ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan [5]. Mazkur tizimda ta'lim siyosati nafaqat inson kapitalini rivojlantirish vositasi, balki umumiy regional identiklikni shakllantiruvchi strategik institut sifatida namoyon bo'ladi. U milliy identiklikni saqlagan holda unga qo'shimcha ravishda umumiy mintaqaviy identiklik qatlamini shakllantiradi.

Nordik integratsiyasi iqtisodiy yoki harbiy integratsiyaga emas, balki madaniy-gumanitar va ijtimoiy hamkorlikka ustuvor ahamiyat beradi. Bu jihat uni boshqa mintaqaviy integratsiya modellaridan ajratib turadi. Mazkur model kichik davlatlarning o'z suverenitetini saqlagan holda kuchli hamkorlikni yo'lga qo'yishi mumkinligini isbotlaydi. Aynan ta'lim sohasi ushbu tizimning **"yumshoq kuch"** vositasi hisoblanadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin shakllangan **"Nordik ta'lim modeli"**, ya'ni **"en skole for alle"** (**"barcha uchun bitta maktab"**) konsepsiyasi tenglik, inklyuzivlik, sifatli bepul yoki arzon ta'lim hamda bolaga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvga asoslangan. Mazkur modelning asosiy vazifasi jamiyatlardagi ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, demokratik qadriyatlarni mustahkamlash va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro ishonchni rivojlantirishdan iborat [6]. Finlandiya va Norvegiyada ta'lim milliy identiklikni shakllantirishning vositasi bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, Shvetsiya va Daniyada u mavjud qirolik an'analari bilan uyg'unlashgan. Barcha Nordik mamlakatlarini birlashtiruvchi umumiy jihat bu ta'limni ijtimoiy farovonlik davlatining ajralmas instituti sifatida talqin qilishdir.

Umumiy identiklikni shakllantirishda ta'lim siyosatining amaliy mexanizmlari alohida ahamiyatga ega. 1971-yilda qabul qilingan Nordik ta'lim va madaniyat kelishuvi mazkur sohadagi hamkorlikning asosiy huquqiy poydevorini yaratdi [7]. Eng asosiy tashabbuslardan biri **Nordplus** dasturi bo'lib, u talabalar, professor-o'qituvchilar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi akademik mobillikni, qo'shma ilmiy loyihalarni hamda institutsional tarmoqlarni qo'llab-quvvatlaydi. Dastur Nordik-Bolting ta'lim makonini shakllantirish, tillar va madaniyatlarni rivojlantirish hamda xalqlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni mustahkamlashni maqsad qilgan [8]. 2025–2030-yillarga mo'ljallangan Ta'lim, tadqiqot va til bo'yicha hamkorlik dasturi sifatli va inklyuziv ta'limni rivojlantirish, mehnat bozori talabalariga mos kompetensiyalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, Nordik tillarini rivojlantirish hamda butun mintaqani yagona ta'lim va tadqiqot maydoniga aylantirishni ustuvor vazifalar sifatida belgilagan [9]. **Vision 2030** strategiyasida ta'lim **"yashil, raqobatbardosh va ijtimoiy barqaror Nordik mintaqasi"**ni shakllantirishning asosiy

ustunlaridan biri sifatida e'tirof etilgan [10]. 2008-yilgi Nordik yuqori o'rta maktab kelishuvi va Reykyavik deklaratsiyasi esa diplom va malakalarni o'zaro tan olish orqali akademik harakatchanlikni sezilarli darajada osonlashtirdi [11].

Ta'lim siyosati orqali umumiy identiklik bir nechta o'zaro bog'liq mexanizmlar asosida shakllantiriladi. Birinchidan, qadriyatlar orqali tarbiya tizimi muhim rol o'ynaydi. Tenglik (*likhet*), ijtimoiy adolat, gender tengligi, ekologik barqarorlik va demokratiya tamoyillari o'quv dasturlari, maktab madaniyati hamda pedagoglar tayyorlash tizimining elementlariga aylangan. Nordik davlatlarining doimiy ravishda yuqori ijtimoiy ishonch ko'rsatkichlariga ega bo'lishi ham aynan ta'lim tizimining uzoq muddatli natijasi sifatida baholanadi. Ikkinchidan, til siyosati umumiy identiklikni mustahkamlovchi asosiy omillardan biri. Daniya, Norvegiya va Shvetsiya tillarining o'zaro tushunilishi, fin va island tillari bilan olib borilayotgan hamkorlik mintaqaviy birdamlikni kuchaytiradi. Helsinki shartnomasining 8-moddasida boshqa Nordik mamlakatlari tillari, madaniyati va ijtimoiy sharoitlarini o'qitish alohida belgilangan. 2024-yilda yangilangan Nordik til siyosati deklaratsiyasi ham skandinav tillarining o'zaro tushunilishini rivojlantirish va umumiy identiklikni mustahkamlashni o'zining asosiy maqsadi sifatida belgilagan [12].

Nordik tillar hamjamiyatining huquqiy asoslari izchil ravishda xalqaro shartnomalar va siyosiy deklaratsiyalar orqali mustahkamlangan. Ushbu jarayonning boshlanish nuqtasi sifatida 1962-yilda imzolangan Helsinki shartnomasi alohida ahamiyat kasb etadi. Shartnomaning 8-moddasi har bir Nordik mamlakatining maktablarida boshqa Nordik mamlakatlari tillari, madaniyati va ijtimoiy sharoitlari, jumladan, Farer orollari, Grenlandiya hamda Aland orollari haqida tegishli darajada ta'lim berilishini nazarda tutadi [13]. Mazkur norma ta'lim tizimi orqali yosh avlodda mintaqaviy ongini shakllantirish va qo'shni xalqlarga nisbatan yaqinlik hissin rivojlantirishga qaratilgan dastlabki institutsional qadam hisoblanadi. Ta'lim siyosatining bunday yondashuvi integratsiyani faqat hukumatlar darajasida emas, balki jamiyatning barcha qatlamlarida mustahkamlash imkonini beradi.

Zamonaviy global jarayonlar Nordik til siyosati oldiga yangi muammolarni qo'yimoqda. Globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida ingliz tilining hukmron mavqeyi tobora kuchaymoqda. 2021-yilda Nordik Kengashi Vazirlar Kengashi tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, 16–25 yoshdagi yoshlarning 95 foizi ingliz tilini oson tushunishini bildirgan, biroq skandinav tillarini tushunish darajasi nisbatan past bo'lib, ayniqsa, daniya tilini anglash qiyinroq deb baholangan [14]. Amaliyotda ko'plab yoshlar o'zaro muloqotda ingliz tilidan foydalanishni afzal ko'rmoqda. Mazkur tendensiya uzoq muddatda skandinav tillari o'rtasidagi tabiiy o'zaro tushunishni zaiflashtirishi va umumiy Nordik identikligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Migratsiya va xalqaro integratsiya jarayonlari til xilma-xilligini kengaytirayotgan bo'lsa-da, mahalliy tillarning ijtimoiy mavqeini saqlashni murakkablashtirmoqda.

Nordik madaniyat siyosatining huquqiy va institutsional asoslari 1962-yilda imzolangan Helsinki shartnomasi bilan mustahkamlangan. Mazkur shartnomaning 13-moddasi adabiyot, san'at, musiqa, teatr, kino, radio va televideniye sohalaridagi almashinuvni rag'batlantirishni nazarda tutadi. Ushbu norma madaniy hamkorlikni davlatlararo integratsiyaning ajralmas qismi sifatida belgilaydi hamda mintaq xalqlari o'rtasidagi madaniy aloqalarni izchil rivojlantirish uchun huquqiy asos yaratadi [15]. Mazkur hamkorlikni amaliy jihatdan muvofiqlashtirishda Nordik Vazirlar Kengashining Madaniyat bo'yicha kengashi va uning madaniyat dasturlari markaziy o'rin egallaydi. Ushbu institutlar umumiy madaniy makonni shakllantirish, qo'shma dasturlarni amalga oshirish hamda madaniy almashinuvni kengaytirishga xizmat qiladi.

Madaniyat siyosatining zamonaviy strategik asosini 2025–2030-yillarga mo'ljallangan Nordik madaniyat bo'yicha hamkorlik dasturi tashkil etadi. Mazkur dastur **Vision 2030** strategiyasi doirasida **“dunyodagi eng barqaror va integratsiyalashgan mintaqqa”** maqsadini amalga oshirishga xizmat qiladi. Dastur madaniy barqarorlikni kuchaytirish, madaniy va ijodiy industriyalarni rivojlantirish, madaniy mobillik hamda muloqotni kengaytirish, madaniy merosni saqlash va rivojlantirishni ustuvor vazifalar sifatida belgilaydi [16]. Bolalar va yoshlar o'rtasida hamjamiyat tuyg'usini mustahkamlash, ularning hayot sifati va farovonligini oshirish alohida strategik yo'nalish sifatida e'tirof etiladi. Dasturda madaniyat erkinligi, mustaqil ommaviy axborot vositalari va **“qo'l uzunligi”** (*arm's length*) prinsipi so'z erkinligi, bilim almashinuvi va demokratik ishtirokni ta'minlovchi asosiy tamoyillar sifatida qaraladi. Natijada davlat madaniyatni qo'llab-quvvatlagan holda uning ijodiy mustaqilligini saqlab qolishga intiladi.

Madaniyat siyosatining amaliy samaradorligi ko'plab institutsional mexanizmlar va grant dasturlari orqali namoyon bo'ladi. Nordik Madaniyat Jamg'armasi (*Nordic Culture Fund*) chegaralararo madaniy loyihalarni moliyalashtirish orqali mintaqaviy hamkorlikni rivojlantiradi. 2024-yilda jamg'arma 248 ta loyiha va tashabbusga jami 29,9 million Daniya kronasi, ya'ni taxminan 4 million yevro miqdorida mablag' ajratgan. Avvalgi yillarda ham yillik grantlar hajmi 3,7–4 million yevro atrofida bo'lib, loyiha moliyalashtirish ushbu institut faoliyatining asosiy yo'nalishi bo'lib qolmoqda [17]. Bunday grantlar turli mamlakatlardan ijodkorlar, ilmiy muassasalar va madaniy tashkilotlarni yagona platformada birlashtirish imkonini beradi.

Madaniy hamkorlikni rivojlantirishda Nordik Madaniyat Birlashmasi (*Nordic Culture Point*) tashkiloti rassomlar rezidenturalari, ijodiy tarmoqlar va madaniy mobillik dasturlarini moliyalashtiradi. 2022-yilda Nordik Madaniyat Jamg'armasi va Nordik Madaniyat Birlashmasi birgalikda taxminan 9 million yevro grant ajratgan. Bolalar va yoshlarning madaniy ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan **“Volt”** dasturi ijodiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydi hamda yosh avlod o'rtasida madaniy muloqotni kuchaytirishga xizmat qiladi [18]. Shu tariqa madaniyat siyosati til siyosatini to'ldirib, umumiy identiklikning yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi. **Vision 2030** doirasida madaniy almashinuv aynan integratsiyani chuqurlashtirishning asosiy vositalaridan biri sifatida baholanadi.

Madaniyat siyosatining amaliy natijalari ko'plab muvaffaqiyatli loyihalar misolida yaqqol ko'rinadi. Nordik Madaniyat Jamg'armasi tomonidan moliyalashtirilgan chegaralararo san'at loyihalari bir vaqtning o'zida bir nechta mamlakatlardan ijodkorlarni birlashtirib, yangi hamkorlik shakllarini yaratmoqda. Film va televideniye loyihalari

nafaqat iqtisodiy foyda keltirmoqda, balki umumiy Nordik uslubini shakllantirib, mintaqaning xalqaro madaniy imijini mustahkamlamoqda. Adabiyot sohasida tarjima loyihalari hamda yozuvchilar almashinuvi umumiy adabiy makonni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. **"Volt"** dasturi doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar bolalar va yoshlar o'rtasida madaniy muloqotni rivojlantirib, kelajak avlodning umumiy identikligini shakllantirishga hissa qo'shmoqda. Madaniy merosni asrashga qaratilgan tarixiy obidalarni muhofaza qilish va zamonaviy barqaror madaniy amaliyotlarni rivojlantirish bo'yicha loyihalar tarixiy bilimlarni oshirish bilan birga zamonaviy hamjamiyat hissini ham mustahkamlamoqda.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Nordik integratsiyasi modeli mintaqaviy hamkorlikning eng muvaffaqiyatli namunalaridan biri bo'lib, uning barqarorligi siyosiy yoki iqtisodiy integratsiyadan ko'ra ta'lim, til va madaniyat siyosatining o'zaro uyg'unligiga tayanadi. Mazkur modelda umumiy identiklik milliy identiklikni inkor etmaydi, aksincha, uni to'ldiruvchi ko'p qatlamli identiklikni shakllantiradi. Konstruktivizm va ijtimoiy identifikatsiya nazariyalari nuqtai nazaridan qaralganda, umumiy qadriyatlar, o'zaro ishonch, demokratik tamoyillar hamda institutsional hamkorlik fuqarolarda yagona Nordik hamjamiyatiga mansublik hissini mustahkamlaydi. **Nordplus** dasturi, Helsinki shartnomasi, Nordik til siyosati deklaratsiyasi hamda **Vision 2030** strategiyasi ushbu jarayonning huquqiy va institutsional asoslarini yaratib, ta'lim, akademik mobillik, til siyosati va madaniy almashinuvni mintaqaviy integratsiyaning strategik vositalariga aylantirgan. Globallashuv, ingliz tilining ustunligi, migratsiya, raqamlashtirish va bozor tamoyillarining kuchayishi Nordik identikligini saqlash va rivojlantirish oldiga yangi chaqiriqlarni qo'yimoqda.

Mazkur tajribadan kelib chiqib, mintaqaviy integratsiyada ta'lim, til va madaniyat siyosatini yagona strategik yo'nalishda rivojlantirish maqsadga muvofiq. Akademik mobillik, qo'shma ilmiy tadqiqotlar va talabalar almashinuvini kengaytirish orqali fuqarolar o'rtasidagi o'zaro ishonch va mintaqaviy birdamlikni kuchaytirish zarur. Umumiy tarix, madaniy meros va qo'shni xalqlar tillarini o'qitishni ta'lim dasturlariga tizimli ravishda integratsiya qilish mintaqaviy identiklikni mustahkamlaydi. Nordik tajribasi asosida Markaziy Osiyoda ham ta'lim, madaniyat va til sohalarida institutsional hamkorlikni kuchaytirish, qo'shma grant dasturlari, akademik almashinuv va madaniy loyihalarni kengaytirish mintaqaviy integratsiya hamda umumiy Markaziy Osiyo identikligini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Wendt A. Anarchy Is What States Make of It: The Social Construction of Power Politics // International Organization. – 1992. – Vol. 46. – No. 2. – P. 391–425.
2. Ashforth B. E., Mael F. Social Identity Theory and the Organization // The Academy of Management Review. – 1989. – Vol. 14. – No. 1. – P. 20–39.
3. Brezicha K. F. Reimagining Education's Role in the Imagined Community: Toward a More Comprehensive Theory of Political Socialization // The Good Society. – 2019. – Vol. 27. – No. 1–2. – P. 29–60.
4. Wivel A. The Nordic Region and the European Union // Ojanen T., Grzymalski J., Ekman M. (Eds.). Handbook of Nordic Cooperation. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2025. – P. 280–292.
5. Hofverberg E. Nordic Cooperation – 60 Years Since the Signing of the Helsinki Treaty of 1962 // In Custodia Legis: Law Librarians of Congress. – 2022. – March 31.
6. Antikainen A. In Search of the Nordic Model in Education // Scandinavian Journal of Educational Research. – 2006. – Vol. 50. – No. 3. – P. 229–243.
7. Moos L. Transnational Influences on Values and Practices in Nordic Educational Leadership: Is There a Nordic Model? – Cham: Springer, 2013.
8. Eurydice. Other Dimensions of Internationalisation in Higher Education. Norway: 12.5 Internationalisation. – Brussels: European Education and Culture Executive Agency, 2023.
9. Nordic Council of Ministers. Education, Training, Research and Language – Political Priorities 2025–2027. – Copenhagen, 2025.
10. Adlercreutz A. Minister for Nordic Cooperation Anders Adlercreutz's Speech at the Annual Meeting of Heads of Mission 2025. – Helsinki: Ministry for Foreign Affairs of Finland, 2025.
11. Ministry of Foreign Affairs of Denmark. Bekendtgørelse af overenskomst af 3. November 2004 om nordisk uddannelsesfællesskab på det gymnasiale niveau (det almene gymnasium og erhvervsskolerne) (BKI No. 12 of 19 February 2009). – Copenhagen, 2009.
12. Nordic Council of Ministers. Declaration on Nordic Language Policy. – Copenhagen, 2024.
13. Nordic Council of Ministers. The Helsinki Treaty: Treaty of Co-operation between Denmark, Finland, Iceland, Norway and Sweden. – Copenhagen, 2018.
14. Östling B. Will English Become the New Nordic Language of Cooperation? // Nordic Labour Journal. – 2021. – April 29.
15. Nordic Council of Ministers. The Helsinki Treaty: Treaty of Co-operation between Denmark, Finland, Iceland, Norway and Sweden. – ANP 2018. – P. 746.
16. Nordic Council of Ministers. Nordic Co-operation Programme for Culture 2025–2030. – PolitikNord 2024. – P. 737.
17. Nordic Culture Fund. Nordic Culture Fund's Annual Report for 2024. – Copenhagen, 2025.
18. Johannisson J. Introduction: A Multilevel Approach to Public Funding for the Arts and Culture // Johannisson J. (Ed.). Nordic Funding for the Arts and Culture: A Multilevel Approach. – Nord 2025:004. – Copenhagen: Nordic Council of Ministers, 2025.